



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TURIZM QO'MITASI BUYRUG'I

Toshkent sh.

86-AF

2026-yil "27" 07

“Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” davlat muassasasining faoliyatini samarali yo'lga qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrda
PQ-348-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
2026-yil 16-martdagi 105-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

“Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” davlat muassasasi nizomi
1-ilovaga muvofiq;

“Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” davlat muassasasi tashkiliy
tuzilmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi** (Gaziyev):

uch kun muddatda Muassasani belgilangan tartibda Davlat xizmatlari
markazida davlat ro'yxatidan qayta o'tkazish choralari ko'rsin;

Yuridik bo'lim (Gofurov) hamda **Inson resurslarini rivojlantirish
va boshqarish bo'limi** (Isabayev) bilan birgalikda **ikki hafta muddatda**
muassasaning yangilangan tashkiliy tuzilmasidan kelib chiqib xodimlarning
lavozim yo'riqnomalari, ularga bo'lgan malaka talablarini ishlab chiqsin va
tasdiqlasin;

Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi (Maxmudov) bilan birgalikda **o'n kun
muddatda** Muassasa faoliyatini moliyaviy tahlil qilib, faoliyat samaradorligini
oshirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish yuzasidan
asoslantirilgan taklif kiritsin;

Ma'muriy bo'lim (Shovkatov) bilan birgalikda **bir oy muddatda** Muassasa
xodimlarini joylashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha
tashkiliy choralarni ko'rsin.

3. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Rais

ASLIGA TO'G'RI



A.Aqqulov

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi
"Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi" davlat muassasasining
NIZOMI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Nizom O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-348-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 105-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi "Davlat muassasalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 302-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat muassasalari to'g'risidagi Nizom" va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, **"Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi" davlat muassasasining** (keyingi o'rinlarda - "Muassasa" deb yuritiladi) huquqiy maqomini, uning filiallari va vakolatxonalarini tashkil etish va ularning faoliyati xususiyatlarini, muassisning, ijro etuvchi organning huquq va majburiyatlarini, Muassasa va muassis o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni belgilaydi.

2. Muassasa Nizomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-348-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi "Davlat muassasalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 302-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Davlat muassasalari to'g'risidagi Nizom" qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Muassasaning muassisi O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - "Muassis" deb yuritiladi) hisoblanadi.

4. Muassasa o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Muassisning buyruq va farmoyishlari, mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

5. Muassasa davlat mulkidagi, o'ziga tezkor boshqarish huquqi asosida berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat muassasasi shaklidagi notijorat tashkilot, u o'ziga biriktirilgan mulkdan qonunchilikda belgilangan doirada, o'z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (vakolatli davlat organi - muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi.

6. Muassasaning to'liq nomlanishi:

davlat tilida – “Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” davlat muassasasi;

rus tilida – Государственное учреждение “Центр сертификации туристских услуг”;

ingliz tilida – State institution “Center for certification of tourism services”.

7. Muassasaning qisqa nomlanishi:

davlat tilida – “Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi” DM;

rus tilida – ГУ “Центр сертификации туристских услуг”;

ingliz tilida – SI “Center for certification of tourism services”.

8. Muassasa O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligida shaxsiy g‘azna hisob varaqlariga, bank hisob varaqlariga, shu jumladan, xorijiy valyutadagi shaxsiy g‘azna hisob varaqlariga ega bo‘ladi.

9. Muassasa belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi va amalga oshirishi, shuningdek, zimmasiga majburiyatlar olishi, suda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

10. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda, Muassasa Muassis roziligi bilan qonun hujjatlariga muvofiq tijorat tashkilotlari, shuningdek, ularda yuridik shaxslarning qatnashishiga yo‘l qo‘yiladigan notijorat tashkilotlar qatnashchisi (a‘zosi) bo‘lishi mumkin.

11. Muassasa boshqa davlat Muassasasi muassisi bo‘lishga haqli emas.

12. Muassasaning pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko‘chasi, 18-uy.

13. Muassasaning faoliyat ko‘rsatish muddati cheklanmagan.

II. MUASSASANI TASHKIL ETISH VA QAYTA TASHKIL ETISH

14. Muassasa Muassis qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tashkil etiladi yoki qayta tashkil etiladi. Qarorda Muassis ko‘rsatiladi.

15. Muassasa Muassis qaroriga muvofiq, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining buyrug‘i asosida davlat xizmatlari markazida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish chog‘ida muassasa soliq va statistika organlarida hisobga qo‘yiladi. Muassasa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

16. Muassasa qonun hujjatlari, ushbu Nizom va Muassis qarorlariga muvofiq faoliyat yuritadi, fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga ega bo‘ladi.

17. Muassasa Nizomi va tashkiliy tuzilmasi Muassis tomonidan tasdiqlanadi.

18. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Muassis qaroriga ko‘ra kiritiladi.

19. Muassasa qayta tashkil etilganda uning huquq, majburiyatlari va mulki belgilangan tartibda yangi tashkil etilgan muassasaga o‘tadi. Bo‘linganda moliyaviy majburiyatlari taqsimlash balansiga muvofiq taqsimlanadi.

Bunda soliq organlari tomonidan tugatilayotgan davlat muassasasining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish talab etilmaydi.

III. MUASSASA FAOLIYATINING ASOSIY MAQSADLARI VA TURLARI

20. Muassasa asosiy faoliyatini notijorat asosda, Muassisning belgilangan vazifalariga muvofiq amalga oshiradi.

Nizom maqsadlariga erishish uchun qonunchilikda belgilangan tartibda, Nizomda nazarda tutilgan yo'nalishlar bo'yicha haq evaziga xizmatlar ko'rsatishi mumkin. Bunday faoliyatdan olingan mablag'lar qonun hujjatlariga muvofiq faqat Muassasaning Nizomda belgilangan vazifalarini bajarishga yo'naltiriladi.

Muassasa faoliyatining asosiy maqsadlari turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va turistik industriya obyektlarini tasniflashni amalga oshirishdan iborat.

21. Muassasaning faoliyat turlari.

Muassasa maqsadlariga muvofiq quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- joylashtirish vositalari, turoperatorlik va boshqa turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish ishlarini olib borish;

- turistik industriya obyektlarini ixtiyoriy asosda tasniflash va ularga toifalar berishni amalga oshirish;

- normativ hujjatlar talablariga sertifikatlashtirish obyektining muvofiqligini tasdiqlash maqsadida davriy inspeksiya nazoratini o'tkazish;

- turizm sohasidagi standartlashtirish va sertifikatlashtirish me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish;

- turizm sohasida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar bilan yaqindan hamkorlik olib borish;

- xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar tashkil etish.

22. Muassasa O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini ham amalga oshirishga haqlidir.

IV. MUASSASA RAHBARINING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

23. Muassasa rahbari (Direktor) — yakka ijro etuvchi organ bo'lib, Muassasa faoliyatini Nizom, qonun hujjatlari va Muassis qarorlariga muvofiq boshqaradi. Direktor Muassasa nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi, uning manfaatlarini ifodalaydi, belgilangan tartibda bitimlar tuzadi, xodimlarni ishga qabul qiladi va ularni lavozimidan ozod etadi.

24. Direktor Muassis oldida belgilangan tartibda Muassasa faoliyati bo'yicha hisobot beradi.

Direktor ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga rioya etadi.

25. Direktor quyidagi majburiyatlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya qilishi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan Muassasaga yuklangan vazifa va funksiyalar bajarilishini tashkil etishi;

Muassasa oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini tashkil etishi va nazorat qilishi;

davlat siriga oid ma'lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilishi;

o'z faoliyati bilan bog'liq prognoz ko'rsatkichlari, davriy ish rejalari va faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlari hamda mezonlariga so'zsiz erishilishini ta'minlashi;

faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan dasturlar, chora-tadbirlar rejasi, "yo'l xaritalari" va boshqa dasturiy hujjatlarni samarali amalga oshirishi;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishi shart.

Muassasa direktori qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajaradi.

26. Direktor quyidagi huquqlarga ega:

Muassasa faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;

Qonunchilikda belgilangan tartibda xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish va bekor qilish;

Xodimlar bajarishi shart bo'lgan buyruqlar va ko'rsatmalar berish;

Muassasa nomidan ishonchnomasiz faoliyat yuritish;

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar berish.

V. MUASSISNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

27. Muassis quyidagi huquqlarga ega:

Muassasa vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq qarorlar, buyruqlar va ko'rsatmalar berish;

Muassasaning asosiy yo'nalishlari, faoliyat rejasi va samaradorlik mezonlarini tasdiqlash hamda ularning bajarilishini nazorat qilish;

Qonunchilikda belgilangan tartibda Direktorni tayinlash va lavozimidan ozod etish, u bilan mehnat shartnomasini tuzish va bekor qilish;

Muassasaning ortiqcha yoki foydalanilmayotgan mulkini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etish;

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq Muassasani qayta tashkil etish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;

Qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lish.

28. Muassis:

Muassasaning faoliyati va samaradorligini belgilangan mezonlar asosida nazorat qiladi;

Davlat mulkidan maqsadli va oqilona foydalanilishini ta'minlaydi;

Qonunchilikda belgilangan hollarda Muassasaning majburiyatlarini bajarish uchun qo'shimcha mablag'lar ajratishi mumkin;

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajaradi.

VI. MUASSASANING MULKI, DAROMAD (FOYDA)NI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI

29. Muassasaning mulki quyidagilardan shakllantiriladi:

Muassis tomonidan tezkor boshqarish huquqi bilan birlashtirilgan davlat mulklari;

Muassasa faoliyati natijasida qonun hujjatlarida ruxsat etilgan tartibda olingan tushumlar va mablag'lar;

Qonunchilikka muvofiq, Turizm qo'mitasi huzuridagi budjetdan tashqari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari va o'z mablag'lari hisobidan; qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa manbalar.

Olingan mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Muassasa ixtiyorida qoladi va faqat Nizomda belgilangan maqsad va vazifalarga yo'naltiriladi. Mulkiy qiymat Muassasaning mustaqil balansida aks ettiriladi.

30. Davlat mulkini tezkor boshqarish huquqi topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab yuzaga keladi. Muassasa davlat mulkidan faqat ushbu Nizomda belgilangan vazifalarni bajarish va qonun hujjatlariga muvofiq foydalanadi.

31. Muassasa mulki bo'linmas hisoblanadi, xodimlar yoki boshqa shaxslar o'rtasida taqsimlanmaydi va Nizomda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladi.

32. Quyidagi hollarda Muassasa tasarrufidagi davlat mulkidan foydalanish Muassis bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi:

asosiy vositalarni (agar mavjud bo'lsa) sotish yoki ijaraga topshirish;

mulkni Muassasa faoliyati maqsadlariga muvofiq bo'lmagan tarzda foydalanish.

Davlat mulkini sotish yoki ijaraga topshirish qonunchilikka muvofiq-faqat "E-auksion" platformasi orqali amalga oshiriladi.

Boshqa hollarda, Muassasa tasarrufidagi mulkdan foydalanish ushbu Nizom va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

33. Muassasa tasarrufidagi davlat mulkidan foydalanish quyidagi hollarda Muassis hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi:

balansida bo'lgan asosiy vositalarni (agar mavjud bo'lsa) ijaraga topshirish yoki boshqa tashkilotlarga vaqtincha berish.

Boshqa hollarda, tasarrufidagi mulkdan foydalanish Muassasa tomonidan amaldagi qonunchilik va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

34. Muassasa, zarurat tug'ilganda zaxira fondi tuzishi mumkin. Zaxira fondi Muassasa faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, zarur hollarda zararlarni qoplash, rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirish hamda xodimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda rag'batlantirish uchun foydalaniladi. Zaxira fondini shakllantirish va undan foydalanish tartibi Muassasa ichki hujjatlari hamda amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

35. Budjet va budjetdan tashqari majburiy to'lovlar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xarajatlar qoplangandan so'ng qolgan mablag'lar avvalo faoliyatni rivojlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va xodimlarni

qonunchilikka muvofiq rag'batlantirishga, shuningdek, qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa yo'nalishlarga yo'naltiriladi. Qolgan qismi qonun hujjatlariga muvofiq Muassis tomonidan belgilanadi.

36. Muassasa faoliyatidan olingan mablag'lar hisobidan zaxira va boshqa fondlar tashkil etishi mumkin hamda ularni ushbu Nizom va Muassis tomonidan tasdiqlangan tartibda ishlatadi.

37. Xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga kelgan zararlar, agar mavjud bo'lsa, birinchi navbatda zaxira fondi hisobidan qoplanadi, ortiqcha mablag'lar esa faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

VII. MEHNATGA HAQ TO'LASH VA IJTIMOY TA'MINOT

38. Muassasa samarali mehnat sharoitlarini yaratadi, mehnat qonunchiligi, mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, davlat ijtimoiy sug'urtasi va ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etilishini ta'minlaydi.

39. Xodimlar Muassasa nomidan Direktor tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilinadi va ularning mehnat shartnomalari bekor qilinadi.

40. Xodimlarning ish haqi shtat jadvaliga muvofiq yagona tarif setkasi yoki qonun hujjatlarida ruxsat etilgan boshqa tartib asosida belgilanadi.

41. Muassasa qonunchilikda taqiqlanmagan faoliyatdan olingan daromadlari hisobidan rag'batlantirish fondi tashkil etishi mumkin. Fond mablag'lari qonun hujjatlariga va ichki tartibga soluvchi hujjatlarga muvofiq xodimlarni mukofotlashga yo'naltiriladi.

42. Muassasa xodimlarini qo'shimcha ravishda moddiy rag'batlantirish Turizm qo'mitasi Raisi tomonidan belgilanadigan tartibda budjetdan tashqari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

VIII. MUASSASANING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

43. Muassasa Muassis bilan kelishgan holda va qonun hujjatlariga muvofiq filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Filiallar va vakolatxonalar alohida yuridik shaxs maqomiga ega emas, Muassasa nomidan faoliyat yuritadi.

44. Filiallar va vakolatxonalar Muassasa tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi hamda Muassasa mulkidan foydalanadi.

45. Filial yoki vakolatxona rahbari Direktor tomonidan Muassis bilan kelishilgan holda tayinlanadi va ishonchnoma asosida vakolatlarni amalga oshiradi. Mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ishonchnoma Direktor tomonidan bekor qilinadi.

IX. MUASSASA FAOLIYATINING OCHIQLIGI VA OSHKORALIGI

46. Muassasa fuqarolarning axborotni erkin izlash va olish huquqlarini qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minlaydi hamda faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va hisobdorlik prinsiplariga amal qiladi.

47. Muassasa o'z rasmiy veb-saytida nomi, faoliyat turi, funksiyalari, vakolatlari va rahbarlari haqidagi ma'lumotlarni joylashtiradi hamda ularni muntazam ravishda yangilab boradi.

48. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining axborot tizimiga har chorak yakunlari bo'yicha hisobot davrining keyingi oyi 25-sanasiga, yil yakunlari bo'yicha esa keyingi moliya yilining 25-fevraliga qadar Muassasa balansida hisobda turgan obyektlarning (agar mavjud bo'lsa) joriy holati, shuningdek, moliyaviy ko'rsatkichlari, jumladan, xizmatlar (ishlar)ni realizatsiya qilishdan olingan tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritib boradi.

X. MUASSASA FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

49. Muassasa hisobot davri tugagach, qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organlarga moliyaviy hisobotni hamda ro'yxati qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hujjatlarni taqdim etadi. Muassasa hujjatlarning saqlanishi va ularning belgilangan tartibda davlat arxivlariga yoki boshqa davlat saqlash joylariga topshirilishi uchun javob beradi. Muassasa faoliyati ustidan monitoring va nazorat Muassis tomonidan faqat qonunchilikda belgilangan vakolatlar va tartiblar doirasida amalga oshiriladi.

50. Muassasa faoliyatini xo'jalik yurituvchi organ sifatida nazorat qilish qonunchilikda belgilangan tartibda Muassis va boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi. Daromad keltiradigan faoliyat turlari mavjud bo'lsa, qonunchilik talablari asosida ichki audit xizmati Direktor tomonidan tashkil etiladi va zarur hollarda tashqi audit o'tkaziladi.

51. Muassasa o'z rasmiy veb-saytida qonunchilikda belgilangan tartibda ochiq ma'lumotlarni joylashtiradi va ularni muntazam ravishda yangilab boradi (tijorat siri yoki qonunchilikka muvofiq cheklangan ma'lumotlar bundan mustasno).

XI. MUASSASANI TUGATISH

52. Muassasa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi yoki Muassis qaroriga muvofiq tugatilishi mumkin.

53. Tugatilayotgan muassasa davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hududdagi soliq organi tomonidan uning moliya-xo'jalik faoliyati tekshiriladi, uning muddati o'n kalendar kundan oshmasligi kerak. Tekshirishda Muassasaning oxirgi tekshirish o'tkazilgan sanadan boshlab Muassasani tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqida davlat xizmatlari markazi xabardor qilingan sanagacha bo'lgan davr mobaynidagi moliya-xo'jalik faoliyati qamrab olinadi, biroq ushbu davr uch yildan oshmasligi zarur.

54. Muassasani tugatish to'g'risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi (vakil) yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

55. Muassasa o'z majburiyatlarini ixtiyoridagi mablag'lar hisobiga bajaradi, bu mablag'lar yetarli bo'lmasa, uning muassisi tomonidan budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda qoplab beriladi.

56. Bu mablag'lar yetarli bo'lmasa, uning muassisi tugatilayotgan muassasaning majburiyatlari va huquqlarini qabul qiladi.

57. Tugatilishi belgilangan muassasaning mol-mulklari kreditorlar talablari qondirilgandan keyin topshirish va qabul qilish dalolatnomasiga asosan Muassisga o'tkaziladi.

58. Muassasani tugatish ishlarining sifatli, to'liq va o'z muddatida amalga oshirilishi yuzasidan shaxsiy mas'uliyat ushbu Muassasaning Muassisiga yuklanadi.


59. Muassasa tugatilganda, davlat xizmatlari markazlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan chiqariladi.

XII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

60. Ushbu Nizom qoidalarining qo'llanishi yoki talqin etilishi bilan bog'liq nizolar, shu jumladan, Muassasa va Muassis o'rtasidagi nizolar, qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

61. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan ayrim turdagi muassasalarning alohida o'ziga xos xususiyatlari va huquqlari belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi
"Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi" davlat muassasasining
TUZILMASI



1.Xodimlarning umumiy soni – 30 nafar.

2.Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq belgilanadi.